

NAVOIY IJODINI ZAMONDOSHLARINING ASARLARIDA KELTIRILGAN MA'LUMOTLAR

O'qtuvchi: Atabayeva Go'zal

Toshkent davlat pedagogika universiteti Navoiyshunoslik

Tillar fakulteti o'zbek tili adabiyot yo'nalishi

Talaba: Sitara Abrayeva Sayfulla qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7841564>

+998 947480829

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki baxtli sayyoralarning kelib chiqishi va daryolarning qo’shilishi”) asari shoir haqida ma’lumot beruvchi ilk manbadir. Bu asar 1467 - 1470 yillar oralig’ida yaratilgan va bevosita hazrat Navoiyning nazorati ostida yakunlangan. Bu aerdagi ma’lumotlar keyinchalik boshqa tarixiy asarlarda aynan takrorlanadi. O ‘sha davrning yana bir tarixchisi Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Soflik bog’i”) asarida ham Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga doir qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asar 7 jildidan iborat bo’lib, Navoiyning bevosita topshirig’i va homiyligida yaratilgan. “ Ravzat us-safo” O ‘rta Sharq va Osiyo tarixiga bag’ishlangan bo’lib, Navoiy haqidagi ma’lumotlar asarning asosan 7-qismida - Sulton Husayn Boyqaro saltanati davri tavsifida uchraydi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirilar tazkiras”) asari Alisher Navoiy nomi zikr etilgan ilk tazkiradir. Tazkirada besh asr davomida yashab faoliyat yuritgan 150 ga yaqin ijodkor haqida ma’lumot keltiriladi. Asar 1486-yilda yaratilgan bo’lib, muqaddima, 7 qism va xotimadan iborat. Hazrat Navoiy hayoti va faoliyatiga doir ma’lumot asarning xotima - muallifga zamondosh shoirlar haqidagi qismida keltirilgan. Mu’iniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriyning “Ravzat ul-jinnot” (“Jannat bog’i”, 1492) asarida hazrat Navoiyning Bodgis viloyatining Chihil duxtaron qasabasida rabot qurdirgani, Farididdin Attor mozori ustida ravoqli imorat solgani haqidagi ma’lumot keltiriladi. Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Haft avrang” (“Yetti taxt”), “Nafahot ul-uns” (“Do’stlik tarovati”) asarlarida ham Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog’liq ko’plab ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”i ta’sirida yaratilgan “Bahoriston” asari 8 ravza (bob) dan iborat bo’lib, 7-ravzada 39 shoirdan biri sifatida Alisher Navoiyga to’xtalib o’tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta’kidlanadi. Husayn Boyqaroning “Risola”sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she’riyati hamda “Xamsa” asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir “so’z mulkining kishvaristoni, sohibqironi” deb ulug’lanadi. 7 G’iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “Xulosat ul-axbor” (“Xabarlar xulosasi” , 1498 - 1499) va “Habib us-siyar” (“Do’stlar siyrati” , 1515 - 1523) asarlarida Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga o’tirishi va Alisher Navoiyning Hirotga qaytishidan boshlab, ulug’ shoirning vafot etishigacha bo’lgan davr oralig’idagi voqealar bay on qilinadi. Tarixchining “Makorim ul-axloq” asari esa Navoiyning yuksak axloqiga bag’ishlangan maxsus risola bo’lib, shoir tarjimai holiga doir muhim faktik ma’lumotlarning keltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Zayniddin Vosifiy qalamiga mansub “Badoye’ ul-vaqoye” (“Go’zal voqealar”) xotiralar to’plamining to’rt bobi (X IV -X V II) Alisher Navoiy shaxsiyatiga bag’ishlangan. Unda hazratning fe’li-sajiyasi, zamondoshlari bilan ijodiy muloqotlari, Navoiy hayoti bilan bog’liq turli qiziqarli voqealar haqida so’z boradi. Shuningdek, Abdulloh Hotifiyning “Layli va Majnun” , Husayn Voiz Koshifiyning “Javohir ut-tafsir” (“Tafsir javohirotlari” , 1493-1494), Atoulloh Asiliyning “Ravzat ul-ahbob” (“Do’stlik

bog'i"), Atoulloh Mahmud Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi" ' (" Badiiy san' atlar"), Shamsiddin Muhammad Badaxshiyning "Risolai muammo" , Husayn bin Muhammad Husayniyning "Risolai muammo" (1499), Ahliy Sheroziyning "Kulliyoti Ahliy Sheroziy"dagi muvashshah-qasidai masnu'si va boshqa ko'plab asarlarda ham Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyati haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. O'tgan asrning 20-30 yillaridan boshlab yurtimizda Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy mezonlar asosida o'rganishga kirishildi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida Abdurauf Fitratning "Navoiyning forsiy shoirlik'i ham uning forsiy devoni to'g 'risinda" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurn., 1925) va "Farhod-uShirin" dostoni to'g'risida" ("Alanga" jurn., 1930) maqolalarini ko'rsatish mumkin. 1919-yildan boshlab Alisher Navoiy tavalludining hijriy-qamariy sana hisobidagi 500 yilligini nishonlash uchun Turkiston Muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o'lka musulmon byurosi tomonidan tayyorgarlik ishlari boshlab yuboriladi. 1925-yilning 11-iyulida o'lka musulmon byurosi huzuridagi o'zbekshunoslik qo'mitasi "Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlarini boshlash haqida" qaror qabul qiladi va shu munosabat bilan ko'plab ishlar amalga oshiriladi. 1926-yilning 4 -mart kuni Navoiy yubileyi Birinchi Turkologiya qurultoyi doirasida Boku shahrida o'tkaziladi. Yubileyda V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, F.Ko'pruluzoda, B.Cho'ponzoda kabi olimlar Navoiyning hayoti va adabiy faoliyati haqida nutq so'zlaydilar, matbuotda ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

X IX asrga kelib, Yevropada Alisher Navoiy asarlari hamda uning asarlari asosida tuzilgan lug'atlarni nashr etish ishlari boshlanadi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841-yilda Parijda Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Tarixi muluki Ajam" asarlarini nashr ettiradi. Rus olimi I.N.Beryozin o'zining "Turk xrestomatiyasi" nomli kitobiga shoir asarlaridan parchalar kiritadi. Rus sharqshunosi V.V.Velyaminov-Zernov 1868-yilda Aloyi binni Muhibiyning "A1 lug'at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig'atoiyat" ("Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalillari") lug'atini Sankt-Peterburgda nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib, lug'at tuzadi. G'arbda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy aspektda o'rganish X IX asrdan boshlaH&an deb aytish mumkin. 1818-yilda nemis olimi X.Purgshtall "Navoiyga oid bitiklar" asarini yaratib, unda Alisher Navoiyning nasl-nasabi, shoirligi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va bunyodkorlik ishlariga to'xtalib o'tadi. Rus sharqshunosi P.Savelyev 1835-yilda shoir ijodiga bag'ishlab maxsus "Alisher Navoiy" nomli maqola yozadi.

References:

1. Shuhrat Sirojiddinov, D ilnavoz Yusupova, O lim jon Davlatov. Navoiyshunoslik [М атн] Q. darslik / Sh. Sirojiddinov [vabo shq .]. — Тошкент: «Т А М А Д Д У Н » , 2018. — 520 b
2. Шеркузиева, Г. Ф., Ф. И. Саломова, and Ф. У. Юлдашева. "РЕЗУЛЬТАТЫ САНИТАРНО-ХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВОДЫ." (2023).
3. Абдукадирова, Л. К., Ф. У. Юлдашева, and М. Р. Мирсагатова. "Анализ Изучения Состояния Организации Здорового И Доброкачественного Питания В Детских Дошкольных Учреждениях." (2022).
4. Юлдашева, Фируза. "Совершенствование работы мобильных бригад в амбулаторно-поликлинических учреждениях системы железно-дорожного транспорта в условиях пандемии COVID-19 в Республике Узбекистан." Международная научно-практическая конференция «COVID-19 и другие актуальные инфекции Центральной Азии» Шымкент,

2022.

5. Юлдашева, Фируза. "«Совершенствование системы профилактических санитарно-противоэпидемических мероприятий на железнодорожном транспорте в условиях пандемии COVID-19.» Материалы международной научно-практической онлайн конференции «Коронавирусная инфекция: диагностика, лечение профилактика», посвященной году «Поддержки молодёжи и укрепления здоровья населения» Фергана, 2021.
6. Юлдашева, Фируза. "Социально-гигиенические аспекты изучения здоровья детей, родившихся с большим весом." Актуальные вопросы общественного здоровья и здравоохранения на уровне субъекта Российской Федерации Материалы всероссийской научно-практической конференции (с международным участием) Иркутск 2021г. стр. 405-411, 2021.
7. Юлдашева, Фируза. "ORGANIZATION OF WORK UNIVERSITIES DURING THE COVID 19 PANDEMIC." International Conference, San Francisco, California, USA, 2020.
8. Юлдашева, Фируза. "SOCIO-HYGIENIC STUDY OF THE HEALTH OF CHILDREN BORN WITH HIGH WEIGHT." (2018).
9. Юлдашева, Фируза, et al. "Факторы риска развития злокачественных новообразований у детей." Сборник научных трудов Республиканской научно-практической конференции "Профилактическая медицина: Гигиеническая наука и практика" Ташкент-2015г. С 87-89, 2015.
10. Юлдашева, Фируза, and Шахром Каримбаев. "Совершенствование объективности оценки качества знаний студентов." (2014).
11. Саломова, Ф. И., and Г. О. Тошматова. "Эпидемиология мастопатии и особенности заболеваемости женщин, страдающих мастопатией." Врач-аспирант 52.3.1 (2012): 222-228.
12. Toshmatova, Guzal. "Ways to optimize the formation of the principles of a healthy lifestyle of children." (2022).
13. Миррахимова, М. Х., Б. Т. Халматова, and Г. А. Тошматова. "Бронхиальная астма у детей: современный взгляд на проблему." (2019).
14. Toshmatova, Guzal Adilkhodjayevna. "Prevalence of mastopathy among women of Tashkent City." (2019).
15. Равшанова, М. З., and Г. А. Тошматова. "Влияние питание на здоровье школьников обучающихся в городских и сельских условия." Соғлом турмуш тарзи" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами/, 2023.
16. Тошматова, Гузал. Shaxar va qishloq sharoitida ta'im olayotgan maktab o" quvchilari ovqatlanishini gigiyenik baholash. Diss. "Tibbiyotdagi zamonaviy ilmiy Tadqiqotlar: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar" Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya Materiallari To'plami Termiz 201 bet 2022 yil 13 may, 2022.
17. Тошматова, Гузал. Qoraqalpogiston respublikasi homilador ayollarni ratsional ovqatlanishni sanitar gigiyenik baholash. Diss. "Tibbiyotdagi zamonaviy ilmiy Tadqiqotlar: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar" Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya Materiallari To'plami Termez 155-156 bet 2022 yil 13 may, 2022.
18. Тошматова, Гузал. Yosh sportchilarning ovqatlanish holatini gigiyenik baholash. Diss. "Yosh olimlar kunlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani xalqaro ishtirok bilan tezislari

to'plami 416-418 bet, 2022.

19. Саломова, Ф. И., Н. О. Ахмадалиева, and Г. О. Тошматова. "Шаҳар ва қишлоқ шароитида таълим олаётган ўқувчилар саломатлигига уларнинг овқатланишининг ва мактаб шароитининг аҳамияти." (2022).

20. Guzal, Toshmatova, Mirsagatova Mavluda, and Islamov Inomjon. "Modern approaches to rationalization of mealing of urban and rural school children in Uzbekistan." (2021).